

O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TERMIN, ATAMA VA MAXSUS LEKSIKANING NAZARIY-AMALIY JIHATLARI

Raximova Sarvinoz Olimovna

Navoiy davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21900384>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi termin, atama, tushuncha, so'z va so'z birikmasi o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlari yoritilgan. Shuningdek, terminologiya fanining o'rganish obyekti, termin va professionalizmning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: termin, atama, terminologiya, tushuncha, so'z, so'z birikmasi, maxsus leksika, professionalizm.

Abstract: This thesis highlights the similarities and differences between a term, expression, concept, word, and word combination. Furthermore, based on scientific sources, it analyzes the object of study of terminology, as well as the specific features of terms and professionalisms.

Keywords: term, expression, terminology, concept, word, word combination, special vocabulary, professionalism.

Аннотация: В данной тезисе освещены сходства и различия между термином, наименованием, понятием, словом и словосочетанием. Также на основе научных источников проанализированы объект исследования терминологии, а также специфические особенности терминов и профессионализмов.

Ключевые слова: термин, наименование, терминология, понятие, слово, словосочетание, специальная лексика, профессионализм.

Terminologiya bu millatning o'tmishi, buguni hamda kelajagini ko'rsatuvchi ko'zga ko'rinadi. Ushbu sohaga oid ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib borish natijasida sohaning tarixi juda qadim zamonlarga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz. O'zbek terminologiyasining oddiy terminlar yig'indisidan muayyan bir struktura darajasigacha bo'lgan yo'lni, shu bilan birgalikda, terminlarning shakllanish jihatidan o'z qatlam birliklarining o'zni beqiyos ekanligini biz turli tadqiqotlar natijasida ko'rib boryapmiz. Termin (lotincha terminus-chegara, chek) so'zidan olingan. Bu so'z muayyan fan, kasb-hunar yoki faoliyat sohasiga oid aniq tushunchani ifodalovchi maxsus so'z yoki so'z birikmasidir. U ma'lum bir sohada predmet, jarayon yoki hodisani nomlash uchun xizmat qiladi. Mana shu sohalardagi terminlar tizimi terminotizmlar deb ataladi.

Terminning so'zdan farqi

So'z umumxalq tilida keng qo'llanadigan birlik hisoblanadi va turli ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Termin esa muayyan fan, kasb yoki sohada aniq bir tushunchani bildiradigan maxsus so'zdir. Masalan, *gul* oddiy so'z, *islamiy naqsh* esa termin hisoblanadi.

Terminning so'z birikmasidan farqi

So'z birikmasi grammatik bog'langan ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi va umumiy ma'no beradi. Termin esa bitta so'z yoki so'z birikmasi shaklida kelishi mumkin, lekin u maxsus ilmiy yoki kasbiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, *qizil gul* oddiy so'z birikmasi, *o'yma naqsh* esa termin hisoblanadi.

Terminning tushunchadan farqi

Tushuncha — ongda shakllanadigan fikriy mazmun yoki tasavvurdir. Termin esa shu tushunchaning tildagi nomidir. Masalan, metallni eritib buyum yasash haqidagi fikriy tasavvur — tushuncha, uni ifodalovchi *temirchilik* soʻzi esa termindir. Masalan, A.V.Superanskayaning “fanda termin va tushunchaning oʻzaro bogʻliqligi birinchi oʻringa chiqadi” fikriga eʼtibor qarataylik. “Termin ortida doimo fikrlash obyekti turadi, lekin umumiy fikr emas, balki maʼlum bir soha bilan chegaralangan maxsus fikr. Bu termin bevosita ilmiy konsepsiya bilan bogʻliq”. Olimning fikridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, tushuncha bizni oʻrab turgan borliq va unda bor narsalar haqida umumiy bilimlar hisoblanadi, termin esa maʼlum bir sohalardagi bilimlarni ifodalaydi. “Termin maxsus tushunchaning nomlanishi sifatida foydalanilganda tilning leksik birligi terminologik, konseptual maʼnoga ega boʻlib, u oʻziga xos lugʻaviy maʼno ustiga qoʻyiladi”.

Terminning atamadan farqi

Koʻpincha termin va atama bir maʼnoda ishlatiladi. Ammo ayrim tilshunoslik manbalarida “atama” umumiyroq tushuncha boʻlib, nomlash vazifasini bajaruvchi birlikni bildiradi, “termin” esa ilmiylik va tizimlilik xususiyatiga ega boʻlgan maxsus atamadir. Yaʼni har bir termin atama hisoblanadi, lekin har bir atama termin boʻlavermaydi.

Atama va terminning farqini bir qarashda ajrata olmaymiz, bir biriga sinonim soʻz sifatida tushunamiz, In ularning farqi qoʻllanilish doirasining kengligidadir. S. Usmonov, M. Mirhamidov, S. Hasanovlarning fikricha: “ atama soʻzining maʼnosi termin soʻzining maʼnosiga nisbatan keng boʻlib, u barcha narsalarning nomi sifatida tushuniladi, termin esa muayyan bir tor sohada qoʻllanuvchi rasmiylashgan soʻzdir. Shu maʼnoda, “termin” tushunchasi «atama» tushunchasining ichiga kiruvchi ilmiy-lugʻaviy birlikdir”. Termin va atama esa nisbatan sinonim tushunchalar boʻlsa-da, qoʻllanilish doirasi atamada nisbatan kengroq boʻladi. Buni quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

a)termin koʻpincha aniq va ilmiy sohalarda ishlatiladi, atama barcha sohalarda ishlatiladi, ijtimoiy, madaniy... . Masalan, charx soʻzi

b) termin maʼlum bir fan, kasb, hunar yoki sohada maxsus tushunchani aniq ifodalovchi soʻz. Masalan: *fonema, morfema, glazur*

d) atama narsa, hodisa, jarayon yoki tushunchaning **nomi**. U kengroq tushuncha boʻlib, terminlarni ham oʻz ichiga oladi. Masalan: *bashik, charx, ombur, koʻza*

Demak:

- **Termin** → maxsus ilmiy/kasbiy nom
- **Atama** → umumiyroq nomlash birligi

Terminologiya sohasining asosiy oʻrganish obyekti maxsus soʻzlar va birikmalar hisoblanadi. Maxsus soʻzlar maʼlum bir sohaga tegishli lugʻaviy birliklar va ular bilan bir xil vazifa oʻtaydigan birikmalar tushuniladi. Mashhur terminshunos olim A.Reformatskiy bu xususida shunday yozadi „...terminlar bu maxsus soʻzlardir”. Yana bir terminshunos olim A.Kalilin muayyan fanlar va kasb hunarga oid soʻzlarni „ maxsus leksika”, deb ataydi va uni 2 guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga birinchi navbatda terminlar kiradi. 2.Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. Olim fikrini davom ettirib „ terminlar bilan professionalizmlar orasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xoʻjaligi, texnikaga tamomila rasmiy boʻlgan qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir. Professionalizm esa biror kasb, mutaxassislik, koʻpincha jonli

tilda tarqalgan, aslini olganda, tushuncha qat’iy , ilmiy tavsifga ega bo’lmagan yarim rasmiy so’zlardir”-deydi. Yuqoridagi fikrning dalili sifatida quyidagi misollarni ko’rishimiz mumkin.

-Tilshunoslikka oid terminlar: fonetika, semantika, derivatsiya, morfologiya...

-Tibbiyotga oid: terapiya, diagnostika, anatomiya , farmakologiya, katarakta...

Professionalizmga oid misollar quyidagilar:

-Tikuvchilikka oid: yoqa olish, qirqim berish, andoza kesish ...

-Qurilish sohasiga oid: beton quyish, armatura bog’lash, g’isht terish, suvoq qilish, oqlash...

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, terminlar muayyan fan va kasb-hunar sohalarining asosiy lisoniy birliklari bo’lib, ular ilmiy tushunchalarni aniq va tizimli ifodalashga xizmat qiladi. Termin, atama, tushuncha hamda professionalizmlarning o’ziga xos xususiyatlarini farqlash terminologik tadqiqotlarning nazariy asoslarini mustahkamlaydi va sohaviy terminlarni ilmiy jihatdan to’g’ri tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: “Наука”, 1989. –С.26
2. Лингвистикий мақолалар тўплами, Тошкент “Akademnashr”, 2001.-С.69
3. Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина (на материале терминологии средств массовой информации) / М.Н. Володина. – М.: Изд-во Моск. гос. ун-та, 2000. – С. 18.
4. Усмонов С. Мирхамидов М., Хасанов С. Юристинг нутқ маданияти. – Т.: 2007. –117б.
- 5.
6. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология. В сб: «Вопросы терминологии». – М., 1961. – С. 52.
7. Калинин А.В. Лексика русского языка. – М.: МГУ, 1971. – С. 141